

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

KAXRAMONOV XURSHIDJON SHUHRAT O'G'LI

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Kaxramonov Xurshidjon Shuhrat o'g'li

Raqamlashtirish sharoitida uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish
.....3

Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли

Повышение эффективности управления жилищным фондом в условиях
цифровизации29

Kakhramonov Khurshidjon Shukhrat ugli

Improving the efficiency of housing stock management in the context of
digitalization57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

KAXRAMONOV XURSHIDJON SHUHRAT O'G'LI

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt2046 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Nurimbetov Ravshan Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Rahimova Dilduza Nigmatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xankeldieva Guzal Sherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "4" 07 kuni soat 14⁰⁰ da majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1309 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.:(99871) 239-28-72; faks (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «10» 06 kuni tarqatildi.
(2023 yil) «do» 06 daqi 1 raqamli restr bayonnomasi).



G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.D. Djurabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Sh.J. Ergashxodjaeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon iqtisodiyotida global raqamlashuv jarayonlarining kuchayib borishi raqamli texnologiyalarning asta-sekin shahar hayotining barcha sohalariga joriy etilishini taqozo etmoqda. Mazkur jarayonlar ko'plab xalqaro reytinglar orqali baholab borilmoqda. IMD xalqaro raqobatbardoshlik markazi tadqiqotiga ko'ra, eng "aqlli" shaharlar reytingida Singapur, Syurix, Oslo, London, Lozanna, Xelsinki, Nyu-York va boshqa rivojlangan jahon markazlari yetakchilik qilmoqda. Reytingning yuqori pog'onalarida bo'lish uchun shaharda ko'plab innovatsion texnologik yechimlar joriy etilishi, shu jumladan ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarini samarali boshqarish kerak¹. "Aqlli" shaharlar kontsepsiyasining asosiy g'oyasi boshqariladigan ob'yektlarning ishlashi to'g'risidagi dolzarb ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yagona axborot makonini yaratish bo'lib, ularning rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladigan turli ko'rsatkichlar, jumladan: uy-joy sharoitlari, energetika, telekommunikatsiya, suv ta'minoti, obodonlashtirish va boshqalar bilan belgilanadi.

Jahonda iqtisodiyotni raqamlashtirish, texnik va texnologik jarayonlarning jadallashuvi uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Mavjud bino va inshootlarni samarali boshqarish va texnik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, uy-joy fondini vakolatli va samarali boshqarishga ehtiyojni qondirish, uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish, boshqaruv faoliyatini axborot-tahliliy qo'llab-quvvatlash, uy-joy fondining har bir ob'yekti bo'yicha ma'lumotlarni qidirish, yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etishning samarali vositalarini ishlab chiqish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda "Raqamli iqtisodiyot" infratuzilmasi elementlarini yaratishga davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatni raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturi², "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi dasturi³ tasdiqlanib, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishini belgilab beruvchi davlatning uy-joy siyosatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi, investitsiya faoliyati va boshqalar kabi tegishli faoliyat sohaları parallel rivojlanmoqda. Yuqoridagi holatlar raqamlashtirish sharoitida uy-joylarni boshqarish tizimini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etib, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

¹ Smart City Index: dunyoning eng aqlli shaharlar reytingi – <https://34travel.me/post/smart-city-index-umnyego-rod>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son ««Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»– <https://lex.uz/ru/docs/5031048>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.03.2020 yildagi PQ-4642-son «Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»– <https://lex.uz/ru/docs/4767518>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni, 2017-yil 24-apreldagi "2017-2021 yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2922-son, 2021-yil 19-iyundagi "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5152-son, 2020-yil 17-martdagi "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4642-son qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Uy-joy fondini boshqarish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko'plab xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan, ular orasida D.Makdonnel, A.Straub, R.Liias, A.Muchinskiy, K.Suszinska, N.Edadan, M.Troyanek, A.Ostanska, S.Deylmann, A.Kerns, X.Priemus, A.Bennadji va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan⁴. Ushbu olimlarning asarlarida uy-joy fondini boshqarishning tushunchaviy apparati, nazariy va uslubiy yondashuvlari, shuningdek, ushbu sohani boshqarishda xorijiy tajribasi ochib berilgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilari orasida P.G.Graboviy, S.G.Sheina, V.V.Buzirev, A.G.Granberg, N.E.Simionova, A.I.Kruglik, T.Yu.Ovsiyannikova, Ye.V.Bedrina, R.M.Aloyan, L.A.Seferyan, I.V.Mineeva, A.M.Goncharov va boshqa olimlar asarlari uy-joy fondini boshqarishning nazariy va uslubiy masalalarga bag'ishlangan⁵. Ushbu olimlar va iqtisodchilarning bir qator ilmiy

⁴ Bogataj, D., McDonnell, D. R., & Bogataj, M. (2016). Management, financing and taxation of housing stock in the shrinking cities of aging societies. *International journal of production economics*, 181, 2-13.; Straub, A. (2002). Strategic technical management of housing stock: lessons from Dutch housing associations. *Building Research & Information*, 30(5), 372-381.; Liias, R. (1998), "Housing stock: the facilities for future development", *Facilities*, Vol. 16 No. 11, pp. 288-294. <https://doi.org/10.1108/02632779810233359>; Muczyński, A. (2022). Organizational model of municipal housing stock management in the contracting system—A case study of Poland. *Land Use Policy*, 115, 106049.; Suszyńska, K. (2015). Tenant participation in social housing stock management. *Real Estate Management and Valuation*, 3(23), 47-53.; Al-Hathloul, S. A., & Edadan, N. (1992). Housing stock management issues in the kingdom of Saudi Arabia. *Housing Studies*, 7(4), 268-279.; Trojanek, M. (2014). Carrying out municipal tasks in the Scope of housing stock management—Case study of Poznań city. *Real Estate Management and Valuation*, 22(3), 85-92.; OSTANŃSKA, A. (2018). Resident opinion surveys as a contribution to improved housing stock management. *Architecture, Civil Engineering, Environment*, 9(2).; Deilmann, C., Effenberger, K. H., & Banse, J. (2009). Housing stock shrinkage: vacancy and demolition trends in Germany. *Building Research & Information*, 37(5-6), 660-668.; Son, H. P., & Kearns, A. (1998). Difficult to let housing association stock in England: property, management and context. *Housing Studies*, 13(3), 391-414.; Priemus, H. (1998). Redifferentiation of the urban housing stock in the Netherlands: a strategy to prevent spatial segregation? *Housing Studies*, 13(3), 301-310.; Bennadji, A., Seddiki, M., Alabid, J., Laing, R., & Gray, D. (2022). Predicting Energy Savings of the UK Housing Stock under a Step-by-Step Energy Retrofit Scenario towards Net-Zero. *Energies* 2022, 15, 3082.

⁵ Основы организации и управления жилищно-коммунальным комплексом /Под общ. ред. проф. П.Г. Грабового. – М.: Изд-во «АСВ», – 2004. –528 с.; Бузырев, В. В. Реновация жилых домов как важный фактор увеличения жизненного цикла жилищного фонда в регионе / В. В. Бузырев // Проблемы современной

ishlari fundamental hisoblanadi, chunki ular uy-joy sohasini rivojlantirish istiqbollarini asoslaydi, boshqaruv modellarini institutsionalizatsiya qilish va samarali tizimni qurish masalasini ko'taradi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, uy-joy fondi va kommunal muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini raqamlashtirish masalalari ko'plab mamlakatlar olimlari tomonidan o'rganilgan, ular orasida G.Vakka, M.Mangia, M.Kastellano-Roman, O.A.Kursakova, N.S.Alekseeva, Yu.A.Gureva, A.A.Pattsukov va boshqa olimlar ishlari e'tiborga loyiq⁶.

O'zbekistonlik olimlardan R.I.Nurimbetov, A.D.Metyakubov, T.A.Xasanov, I.X.Davletov, D.A.Berdieva, A.S.Sultanov, A.Ismailov va boshqalarning ilmiy ishlari e'tiborga loyiqdir⁷. Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida uy-joy fondini

экономики. – 2012. – № 4(44). – с. 285-288.; Гранберг А. Г. Основы региональной экономики. – М.: Изд. Дом ГУ ВШЭ, 2004.; Симионова, Н. Е. Актуальные проблемы реализации интеграционных проектов в жилищно-коммунальной сфере / Н. Е. Симионова, Р. В. Бабенко // Управление проектами и программы. – 2005. – № 1. – с. 54-62.; Круглик, С.И. Проблемы теории и практики управления жилищной сферой мегаполисов / С. И. Круглик // Проблемы современной экономики. – 2008. – №1 (25).; Овсянникова, Т. Ю. Компаративные межстрановые исследования жилищной сферы / Т. Ю. Овсянникова, О. В. Рабцевич, И. В. Югова // Жилищные стратегии. – 2021. – Т. 8. – № 4. – с. 317-342. – DOI 10.18334/zhs.8.4.113978.; Бедрина Е.В., Гончаров А.М. Участие территориального общественного самоуправления в схеме управления многоквартирными домами // УрФО: Строительство и ЖКХ. – 2007. – № 4.; Алоян Р.М., Кузина Т.Н. Современные тенденции развития жилищного фонда: региональный аспект // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. – 2008. – № 2. – с. 5-8.; Сеферян Л.А. Особенности формирования кластерной структуры при воспроизводстве жилищного фонда // Вестник УрФУ. Серия: Экономика и управление. – 2011. – № 1. – с. 76-83.; Минеева И.В. Управление жилищным фондом муниципального образования: дисс.... канд. экон. наук. – Пенза, 2007. – 172; Гончаров А.М. Формирование организационно-экономического механизма управления жилищным фондом крупного города (на примере города Екатеринбурга): дисс.... канд. экон. наук. – Екатеринбург, 2008.;

⁶ Vacca, G., Quaquero, E., Pili, D., & Brandolini, M. (2018). Integrating BIM and GIS data to support the management of large building stocks.; Mangia, M., Lazoi, M., & Mangialardi, G. (2021, July). Digital Management of Large Building Stocks: BIM and GIS Integration-Based Systems. In IFIP International Conference on Product Lifecycle Management (pp. 133-150). Springer, Cham.; Castellano-Román, M., Garcia-Martinez, A., & Pérez López, M. L. (2022). Social Housing Life Cycle Management: Workflow for the Enhancement of Digital Management Based on Building Information Modelling (BIM). Sustainability, 14(12), 7488.; Куракова, О. А. Использование BIM-технологий на стадии эксплуатации объектов недвижимости / О. А. Куракова, Х. Макеева // Недвижимость: экономика, управление. – 2018. – № 2. – с. 55-59.; Алексеева, Н. С. Применение BIM- и ГИС-технологий в строительстве / Н. С. Алексеева // Экономика и управление: тенденции и перспективы: материалы I Межвузовской научно-практической конференции факультета экономики и управления, Санкт-Петербург, 02–03 марта 2020 года. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный архитектурно-строительный университет, 2020. – с. 217-221.; Гурьева, Ю. А. Российский опыт использования BIM-технологий на этапе эксплуатации объектов недвижимости / Ю. А. Гурьева, Е. М. Козлова // BIM-моделирование в задачах строительства и архитектуры : Материалы V Международной научно-практической конференции, Санкт-Петербург, 20–22 апреля 2022 года / Под общей редакцией А.А. Семенова. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный архитектурно-строительный университет, 2022. – с. 28-41. – DOI 10.23968/BIMAC.2022.004.; Ovsiannikova, T. Yu. Building information modelling systems: strategic objectives and realities of digital transformation in construction / T. Yu. Ovsiannikova, A. A. Patsukov // Real Estate: Economics, Management. – 2022. – No 1. – P. 13-18. – EDN VJSJCW.

⁷ Нуримбетов Р. И. Жилищный фонд Республики Узбекистан: проблемы и перспективы развития //Инвестиции, градостроительство, недвижимость как драйверы социально-экономического развития территории и повышения качества жизни населения. – 2022. – с. 188-193.; Nurimbetov, R. I., & Metyakubov, A. D. (2020). Advanced housing fund management system as a tool for improving delivery of municipal services on client satisfaction. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 3177-3188.; Хасанов Т. А. Тенденции развития жилищного хозяйства и особенности управления жилищным фондом в Узбекистане //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 6. – с. 181-187. ; Давлетов И. Х., Маманазаров О. Ш. Вопросы управления, сохранения и модернизации многоквартирного жилищного фонда //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 2. – с. 203-211.; Бердиева Д. А. Уй-жой фондини бошқаришни янада ривожлантириш ва туар жойларга хизмат кўратиш бозори //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2019. – №. 2. – с. 44-51.;

boshqarish va uy-joy kommunal xo'jaligining mahalliy tajribasi tavsiflanib, ushbu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan asosiy muammolar asoslab berilgan.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning o'rganilgan ilmiy ishlari raqamli texnologiyalar uy-joy fondini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini shakllantirishda qanday muhim rol o'ynashini aniq ko'rsatib beradi. Ammo shuni tan olish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda uy-joy fondi ob'yektlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va taqdim etishning qisman yetarli usullari mavjud emas, bu esa ushbu soha sub'yektlariga mamlakat uy-joy fondini saqlash, ishlatish va rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishni murakkablashtiradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ-20170929173-raqamli «O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish (Toshkent shahri misolida)» mavzusidagi (2018-2020 yy.) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamlashtirish sharoitida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uy-joy fondining mohiyati va xususiyatlarini menejment nuqtai nazaridan o'rganish va uni boshqarishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;

raqamli transformatsiya sharoitida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarishning xorijiy tajribasini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondining holatini tahlil qilish;

Toshkent shahri misolida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish tizimining hozirgi holatini baholash;

ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni asoslash;

O'zbekiston Respublikasida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish tizimini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash;

prognozlash usullari asosida O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondining rivojlanish dinamikasini o'rganish;

zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekiston Respublikasining ko'p xonadonli uy-joy fondi va uning faoliyati uchun mas'ul bo'lgan boshqaruv organlari olingan.

Tadqiqotning predmetini uy-joy fondini boshqarish va saqlash jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Sultanov, A. (2020). Prospective foreign experience outcome implementations of housing fund management in Uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, (4), 201-207.; Исмаилов, А., Касимов, А., & Юлдашев, Г. (2022). Стратегические направления развития жилищно-коммунальной инфраструктуры Республики Узбекистан: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a40. *Экономика и образование*, 23(3), 264–269.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarkibiy va dinamik tahlil va omillarni tahlil qilish usullari, statistik usullar, matematik va grafoanalitik usullar, tizimli tahlil va sintez usullari, ijtimoiy so'rov usuli, ekonometrik tahlil va ilmiy prognozlash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muammoli bank kreditlari mavjud har bir uy-joy mulkdorlari shirkatining faoliyati yuzasidan tegishli xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining xulosasi olingan taqdirda, joylar mulkdorlarining umumiy yig'ilish qarori asosida ularning boshqarish usulini o'zgartirish taklifi asoslangan;

Toshkent shahridagi uy-joy fondini boshqaruv idoralarini "Raqamli poytaxt" axborot-tahlil markaziga foydalanuvchi sifatida ulash asosida uy-joy fondini boshqaruvidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda uy-joy-kommunal xizmatlari operativligini ta'minlash orqali ko'p xonadonli uylarni boshqarish samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

binolarning axborot modeli va geoaxborot tizimi yordamida axborot modellashtirish, boshqarishga raqamli texnologiya va platformalarni joriy etish asosida uy-joy fondi boshqaruv kompaniyalari xarajatlarini 20 foizgacha kamaytirish imkoni asoslangan;

aholining o'sish dinamikasini tavsiflovchi omillarni hisobga olgan holda turar-joy binolarini ishga tushirish dinamikasi va uy-joy fondi o'sishining 2028-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uy-joy fondini boshqarish sohasini rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni va bugungi kunda mamlakatda mavjud bo'lgan barcha uy-joy fondini boshqaruv usullarini hisobga olgan holda uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari taklif etilgan;

barcha darajadagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va jamoatchilik nazorati va tartibga solishni ta'minlashda izchillik va analitik usullardan foydalanish orqali boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish maqsadida uy-joy kommunal xo'jaligi ishtirokchilarining axborot bilan o'zaro almashuv modeli taklif etilgan;

uy-joy fondini boshqarish sohasidagi ishtirokchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda barcha kerakli ma'lumotlarni yagona raqamli makonda to'plash imkonini beradigan uy-joy fondini boshqarish uchun yagona raqamli platforma kontseptsiyasi taklif etilgan;

davlat organlariga uy-joy fondini boshqarishni sohasidagi boshqaruv kompaniyalari sonini rejalashtirishda va samaradorligini oshirishda zarur bo'ladigan uy-joy fondini o'sishi dinamikasining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

uy-joy fondi ob'yektining ekspluatatsiya bosqichida axborot modellashtirish texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish sxemasi va uy-joy fondini boshqarish sohasiga raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy yetish mexanizmi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy

hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, boshqaruv kompaniyalari olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishga oid ilmiy-tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy apparatni boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan sohada olib borilayotgan islohotlar, jumladan, mamlakatda xususiy uy-joy fondini boshqarish tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro ijtimoiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish, uy-joy fondini boshqarishda demokratik bozor munosabatlarini takomillashtirish hamda kelgusida sohada boshqaruv tizimini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

muammoli bank kreditlari mavjud har bir uy-joy mulkdorlari shirkatining faoliyati yuzasidan tegishli xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining xulosasi olingan taqdirda, joylar mulkdorlarining umumiy yig'ilish qarori asosida ularning boshqarish usulini o'zgartirish bo'yicha berilgan taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 avgustdagi PQ-346-son qaroriga 1-ilova "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2022 yil 6 dekabrda 03/02-6131-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida moliyaviy jihatdan muammoli holatdagi uy-joy mulkdorlari shirkatining boshqaruv usulini o'zgartirish asosida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

Toshkent shahridagi uy-joy fondini boshqaruv idoralari "Raqamli poytaxt" axborot-tahlil markaziga foydalanuvchi sifatida ulash asosida uy-joy fondini boshqaruvidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda uy-joy-kommunal xizmatlari operativligini ta'minlash orqali ko'p xonadonli uylarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha berilgan taklifi O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tomonidan "Raqamli Toshkent" kompleks daturasi asosida yaratilgan "Mening uyim" axborot billing tizimini takomillashtirish maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2022 yil 6 dekabrda 03/02-6131-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Mening uyim" axborot billing tizimida kamchiliklar bartaraf etilib, mazkur platformaning samaradorligini oshirish uchun yangi raqamli vositalarni birlashtirishga imkon yaratilgan;

binolarning axborot modeli va geoaxborot tizimi yordamida axborot modellashtirish, boshqarishga raqamli texnologiya va platformalarni joriy etish

bo'yicha berilgan taklifi Toshkent shahridagi uy-joy fondini boshqaruv kompaniyalari faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2022 yil 6 dekabrda 03/02-6131-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Toshkent shahrida ko'p xonadonli uy-joylarni raqamlashtirishning birinchi bosqichi boshlangan va ushbu chora-tadbirlar uy-joy fondini boshqaruv kompaniyalari xarajatlarini 20 foizgacha kamaytirish imkoni yaratilgan;

aholining o'sish dinamikasini tavsiflovchi omillarni hisobga olgan holda turar-joy binolarini ishga tushirish dinamikasi va uy-joy fondi o'sishining 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2022 yil 6 dekabrda 03/02-6131-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlarni samarali boshqarish stsenariylari ishlab chiqilgan va uy-joy fondini boshqaruv kompaniyalarini yaratish va optimallashtirish uchun imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, OAK e'tirof etgan jurnallarda 5 ta, nufuzli horijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shuningdek, Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda 7 ta ma'ruza tezislari nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflab berilgan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko'rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida uy-joy fondini samarali boshqarishning nazariy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli transformatsiyalashuv sharoitlarida boshqaruv ob'yekti sifatida uy-joy fondining mohiyati va o'ziga xosliklariga ta'rif berilgan. Uy-joy fondini boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlangan, shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitlarida uy-joy fondini boshqarishning ilg'or horijiy tajribalari o'rganilgan.

Uy-joy mamlakatning eng muhim ijtimoiy kafolati va ijtimoiy rivojlanishi va iqtisodiy o'sishini asosiy omili, shuningdek, iqtisodiyot turli sektorlarining rivojlanish dinamikasini hamda aholining ertangi kunga ishonchini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Uy-joyning qulayligi va sifati demografik ko'rsatkichlarga, kishilarning psixologik holati va sog'ligiga, ularning ijtimoiy,

ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Uy-joy fondining bir xil turga ega emasligi sababli mazkur soha yetarlicha murakkab boshqaruv ob'yekti bo'lib hisoblanadi, chunki uy-joy fondining har bir ob'yekti o'z mohiyatiga ko'ra nodir bo'lib sanaladi va turli xil rejalashtirish va konstruktiv yechimlarga, shu jumladan, o'z yemirilish darajasiga ega bo'ladi.

Ko'pchilik mamlakatlardagi uy-joy qonunchiligi ko'p o'n yilliklar mobaynida "uy-joy fondi" tushunchasidan foydalanib keladi, lekin so'nggi vaqtlargacha uning kelib chiqishi va ta'rifi mavjud emas edi. Gap "uy-joy fondi" atamasi haqida ketganida ham ilmiy adabiyotlarda, ham me'yoriy-huquqiy jihatdan uning yetarlicha mashaqqatli yo'lni bosib o'tganligini hisobga olish zarur. So'zma-so'z olganda fransuzchadan kelib chiqqan "fond" so'zi "asosiy qism" yoki "asos, zamin" ma'nosini bildirib, biz uni "asos" sifatidagi uy-joy fondi yoki turar-joy inshootlarining jamlanmasi deb talqin qilishimiz mumkin⁸.

O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondi mulkchilik shakliga bog'liq holda davlat va xususiyga ajratilishi mumkin. Davlat uy-joy fondi o'z ichiga mahalliy hokimiyat, idoraviy va kommunal uy-joy fondlarini oladi. Ularning har birini sinchiklab ko'rib chiqishda farqli tomonlarini aniqlash mumkin, shunga ko'ra, mahalliy hokimiyatlarga qarashli uy-joy fondi davlat organlari boshqaruvida bo'lib, umummahalliy byudjetga soliq tushumlari, shuningdek, majburiy va boshqa to'lovlar hisobiga yaratiladi. Idoraviy uy-joy fondi davlat korxonalarini, muassasalari va tashkilotlari to'liq operativ boshqaruvi yoki xo'jalik yurituvda bo'ladi. Kommunal uy-joy fondi mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga yoki boshqaruvning boshqa shakllari (xususiy, mahalliy hokimiyatga qarashli, idoraviy uy-joy fondi)dan balansga o'tkazish yo'li bilan yaratilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan fuqarolar uchun xususiylashtirish huquqsiz qarzga berish shartlarida foydalaniladi⁹. Bizning fikrimizcha, mahalliy hokimiyatga qarashli bo'lgan va idoraviy uy-joy fondini birlashtirish eng ratsional bo'lib hisoblanib, bu mazkur ikki uy-joy fondi mulkchilikning o'xshash shakliga egaligi bilan shartlanadi.

Bizning mamlakatimizdagi xususiy uy-joy fondining tuzilmaviy tarkibi fuqarolarning mulkchiligida va xo'jalik birlashmalarining mulkchiligida bo'lgan uy-joy fondiga bo'linadi. Agarda ulardan birinchisi individual uy-joylar tarkibida qurilgan uylar va xonadonlar, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda fuqarolar tomonidan sotib olingan uy-joy shirkatlari va boshqa shu kabilarga qarashli uylardagi xonadonlar mavjudligini ko'zda tutsa, u holda ikkinchisi – bu shirkatlar, jamoatchilik birlashmalari/fondlari va boshqa shu kabilarning mablag'lari hisobiga auksionlar yoki qonunda ko'zda tutilgan boshqacha asoslarda sotib olingan ob'yektlardir¹⁰.

Boshqaruv ob'yekti sifatida uy-joy fondini ko'rib chiqishda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish zarurati paydo bo'ladi. Muallif tomonidan uy-joy fondining o'ziga xosliklari aniqlanib, ular ichida ijtimoiy ahamiyati, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi va uy-joy fondining bir turda emasligi kabi o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir.

⁸ Этимологический онлайн-словарь русского языка. – <https://lexicography.online/etymology/>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi– <https://lex.uz/docs/106134>

Hozirgi bosqichda uy-joy fondini boshqarish tizimi, uni takror hosil qilish, foydalanish va uni boshqarish ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu yerda I.V.Mineevaning ilmiy ishi diqqatga sazovor bo'lib, bunda u "uy-joy fondi" tushunchasiga ancha keng ta'rif berib, bu uni aynan boshqaruv ob'yekti pozitsiyasidan turib ochib beradi, u uy-joy fondi – bu o'z tarkibi bo'yicha bir turda bo'lmagan va ularni boshqarishga hamda ulardan foydalanishga individual yondashuvni talab qiluvchi uy-joylar jamlanmasi deb hisoblaydi¹⁰. Xuddi shunday fikrni L.A.Seferyan ham o'z ilmiy ishida ta'kidlab o'tadi va yirik shaharning uy-joy fondining quyidagicha talqinini beradi: "yirik shaharning uy-joy fondi o'z ichiga mulkchilik shakllaridan va texnik mo'ljallanishidan qat'iy nazar barcha binolarni oladigan va mana shu jihatdan aholining uy-joy bilan himoyalanihdagi, shu jumladan, mulkka egalik qilish va uni tasarruf etishdagi ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan mahalliy hokimiyatarga qarashli tumanlar va mikrorayonlar hududida joylashgan barcha turar-joy inshootlarining jamlanmasini namoyon qiladi"¹¹.

Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning ishlarida asosan boshqaruvning tashkiliy xususiyatlari va metodlari ta'kidlab o'tilgan, lekin uy-joy fondining "samaradorligi" va "boshqarish samaradorligi" masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. "Uy-joy fondini boshqarish samaradorligi" tushunchasiga ta'rif berish maqsadida "samaradorlik" atamasining talqinini berish lozim, chunki ilmiy adabiyotlarda bu borada ko'plab atamashunoslik talqinlari mavjuddir. "Samaradorlik" tushunchasi turli xil sohalarda qo'llaniladi va har xilda talqin qilinadi, bir xildagi yagona ta'rifning mavjud emasligi turli yillarda olimlar orasida yorqin ilmiy munozaralarni tug'dirmoqda. XX asrning yorqin vakili, menejmentda ta'siri kuchli bo'lgan nazariyachilardan biri bo'lgan amerikalik olim P.F.Druker "samaradorlik"ni eng kam sarf-xarajatlar bilan olingan natija deb ta'riflar edi¹².

Boshqaruv samaradorligini oshirish belgilangan boshqaruv vazifasiga va uni bajarishning makonli shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, boshqaruv samaradorligini oshirish vazifasini hal qilishda shunchalik ko'p omillarni hisobga olish zarur bo'ladi. Bundan kelib chiqib, boshqaruv samaradorligini oshirish omillari haqidagi savolga qandaydir mavhum tasavvurlar nuqtai-nazaridan javob berish mumkin emasdir. Boshqaruv samaradorligini oshirish omillari qabul qilinadigan boshqaruv qarorini amalga oshirish vaqti va joyining konkret shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Boshqaruv samaradorligini oshirish omillarining asoslanganligiga ko'p jihatdan tashkilot faoliyatining muvaffaqiyati bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, muallif tomonidan quyidagicha ta'rif shakllantirildi: "uy-joy fondini boshqarish samaradorligi – bu eng kam sarf-xarajatlar bilan eng yuqori natijadorlikka erishilgan boshqaruv tizimi elementlari


¹⁰ Mineeva И.В. Управление жилищным фондом муниципального образования: диссертация ... кандидата экономических наук: 08.00.05. - Пенза, 2007. - 167 с.

¹¹ Сеферян Л.А. Организация управления жилищным фондом крупного города для обеспечения устойчивого развития: диссертация ... кандидата технических наук: 05.02.22 - Иваново, 2018. - 219 с.

¹² Друкер, П. Классические работы по менеджменту: избранные статьи из журнала Harvard Business Review / П. Друкер ; Питер Друкер ; пер. с англ. [И. Григорян, О. Медведь, С. Писарева]. – 2-е изд.. – Москва : Юнайтед Пресс, 2010. – (Сколково). – ISBN 978-5-904522-23-0. – EDN QUEORX.

faoliyatining ko'rsatkichlaridir"¹³. Ta'kidlash zarurki, mazkur vaziyatda tizim elementlari bo'lib fuqarolarning xavfsiz va qulay yashash shart-sharoitlarini ta'minlaydigan uy-joy fondini boshqarish sohasi sub'yektlari (boshqaruvchi va resurs ta'minoti tashkilotlari) hisoblanadilar.

Deyarli barcha boshqaruv faoliyat o'z asosida menejment tashkil etiladigan protsessual komponentlarning o'ziga xos to'plamiga ega bo'ladi. Uy-joy fondini boshqarishga ta'sir o'tkazuvchi tamoyillar va omillar tahlili ularni ma'lum bir tarzda tasniflashga imkon beradi. Muallif tomonidan uy-joy fondini boshqarish tizimining rivojlanishiga yordam beruvchi omillar tasnifi tuzib chiqilib, bu yerda quyidagi omillar ajratib ko'rsatilgan: boshqaruv, unumdorlik va tavakkallar (1-rasm).



1-rasm. Boshqaruv tizimining rivojlanishi omillarini tasniflash ¹⁴

Namoyish etilgan omillar tasnifi ichki va tashqi omillarga qarshi turgan holda tizimga yaxlit va har tomonlama rivojlanishga imkon beradi. Ta'kidlab o'tish lozimki, omilli ta'sir ko'rsatish kuchiga bog'liq holda keltirib o'tilgan omillar ham ijobiy, ham salbiy sifatda ishlashi mumkindir. Boshqaruv va unumdorlik omillari ijobiy dinamikaga, tavakkal omili esa aksincha, salbiy ta'sirga ega bo'ladi. Boshqaruvda ilmiylik omili ijobiy ta'sir ko'rsatishning yorqin misoli bo'lib hisoblanadi. Ilmiylik omilini oqilona qo'llash uy-joy fondini boshqarish tizimining barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi, mazkur omilning inkor etilishi esa tizimning butunlay buzilishiga olib keladi. Tavakkal omillari salbiy dinamikani namoyon

¹³ Muallif tomonidan berilgan ta'rif

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan

qiladi. Omillarning bu sinfidagi salbiy samaradan innovatsiyalarni joriy etish qobiliyatsizlikni ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Hozirgi vaqtda uy-joy fondini boshqarish sohasi innovatsion texnologiyalarni, ayniqsa, yuzaga keladigan muammolarga darhol aks-javob berish va boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilishga imkon beradigan boshqaruvning raqamli texnologiyalarini joriy qilishda ortda qolmoqda.


Dissertatsiya ishida tahlil qilingan uy-joy fondini boshqarishdagi ilg'or xorijiy tajribalarni taxlil qilish bizga shuni ta'kidlashga imkon beradiki, uy-joy kommunal xizmatlar sohasidagi boshqaruv faoliyatini yaxshilash bo'yicha islohotlar ikki bo'g'inli raqobatchilik muhiti shakllantirilishiga yo'naltirilishi lozim bo'lib, bunda birinchi bo'g'in uy-joy fondini boshqarishga uy-joy mulkdorlaridan buyurtmaning paydo bo'lishini ko'zda tutadi, ikkinchisi esa boshqaruvchi kompaniyalardan kelib tushadigan uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish uchun resurslar ta'minotchilari yoki pudrat tashkilotlarining raqobatchiligi rivojlanishini ko'rsatadi.

Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish bo'yicha xorijiy tajribaga murojaat qilish mazkur soha uchun strategik qarorlar ishlab chiqilishini jadallashtirishga imkon beradi. Mazkur sohaga investitsiyalarni jalb qilish uchun, biznes-muhiti uchun jozibador va qulay bo'ladigan institutsional shart-sharoitlarni yaratish zarurdir. Samarali boshqaruv faoliyati uchun o'z navbatida zamonaviy huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlarini yaratish uchun bazaga aylanadigan boshqaruvchi kompaniyalar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini ro'yobga chiqarish uchun majmuaviy tarzda yondashish zarur bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Uy-joy fondini boshqarish tizimi holatining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasining ko'p xonadonli uy-joy fondi tuzilmasi tadqiq qilingan, joriy boshqaruv tizimiga baho berilgan va bugungi kunlarda mavjud bo'lgan uy-joy fondini boshqarishdagi raqamli dastaklar o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondining tuzilmaviy-dinamik tahlili shu haqida guvohlik beradiki, so'nggi bir necha yillar davomida o'sish tendentsiyasi saqlanib qolmoqda va 2021-yil bo'yicha uy-joy fondi hajmi 636,4 mln.kv.m ni tashkil etdi. 2010-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda uy-joy fondi 148,8 % lik o'sish sur'atini ko'rsatib, o'rtacha yillik o'sish 12,0 mln.kv.m dan sal ko'proqni ko'rsatdi (2-rasm). Uy-joylarni foydalanishga topshirish ko'rsatkichlari ham shuningdek mazkur sohadagi ijobiy dinamika haqida guvohlik beradi, masalan, 2010- yilda foydalanishga topshirilgan uy-joylar hajmi 8 838,1 ming kv.m ni tashkil etgan bo'lsa, u holda 2021-yilda mazkur ko'rsatkich 1,5 martaga o'sib, 13 643,4 ming m² ni tashkil etgan.

Amalda bozor omillarini hisobga olgan holda uy-joy fondini va uy-joy qurilishini optimallashtirish masalalari kamdan-kam hollarda hisobga olinadi. Bu “premium, elit, biznes” turkumidagi uylar qurilishiga olib kelib, bu ko'pincha aholining turli qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash muvozanati buzilishiga, uy-joy fondidan noratsional foydalanishga va ba'zi bir xonadonlar turlari taqchilligiga, boshqalarining esa ortiqchaligiga olib keladi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondi va uy-joylarni ishga tushirish ko‘rsatkichlarining nisbati ¹⁵

Uy-joy fondi tuzilmasini mulkchilik shakllari bo‘yicha yanada sinchiklab ko‘rib chiqish natijasida bugungi kunda eng ko‘p qismini xususiy uy-joy fondi tashkil etadi, 2021-yil davomida mazur ko‘rsatkich 633 132,6 ming. kv.m. ga, davlat uy-joy fondi esa 3 281,7 ming. kv.m. ga yetgan (1-jadval).

1-jadval

Uy-joy fondini mulkchilik shakli bo‘yicha taqsimlash ¹⁶

№	Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	O‘sish, %
1	Umumiy uy-joy fondi, mln.kv.m.	490,8	507,6	521,2	536,8	548,9	636,4	129,7
2	Davlat uy-joy fondi, mln.kv.m.	3,3	3,5	3,3	3,5	3,4	3,3	100,0
	Foizda (%)	0,7	0,7	0,6	0,7	0,6	0,5	–
	Xususiy uy-joy fondi, mln.kv.m.	487,5	504,1	517,9	533,3	545,5	633,1	129,9
3	Foizda (%)	99,3	99,3	99,4	99,3	99,4	99,5	–
	Shaxarda, mln.kv.m.	249,1	259,5	270,4	277,6	285,1	329,3	132,2
	Foizda (%)	50,8	51,1	51,9	51,7	51,9	51,7	–
4	Qishloq joylarda, mln.kv.m.	241,7	248,1	250,8	259,2	263,8	307,1	127,1
	Foizda (%)	49,2	48,9	48,1	48,3	48,1	48,3	–
4	Bir kishiga uy-joy bilan ta‘minlash darajasi, kv.m.	15,4	15,7	15,8	15,8	16	16	–

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi 10 yilda 2012-yildan 2021-yilga qadar 120 353,9 ming.kv.m. uy-joy foydalanishga topshirilgan. Uy-joylarni foydalanishga topshirish sur‘atining o‘sishi 2010-yildagi 10 162,2 ming.kv.m. dan 2021-yildagi 13 643,4 ming.kv.m. gacha o‘ydi, bunda foiz nisbatida bazis yilga nisbatan o‘sish 134% ni tashkil etdi. Mamlakatimizda uy-joylarni foydalanishga topshirish dinamikasini o‘rganish va o‘sish sur‘atlarini aniqlash shu haqida guvohlik beradiki, individual quruvchilar tomonidan uy-joylar qurilishi ancha yuqori sur‘atlarda bormoqda. Mana shu bilan bir qatorda mamlakatimizda bir kishi hisobiga uy-joy bilan ta‘minlanganlik darajasining o‘sishi kuzatiladi. 2022-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha bir kishi boshiga uy-joy maydoni o‘rtacha 18,2 kv.m. ni tashkil etadi, bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkich bilan taqqoslaganda 2,2 kv.m. ga

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

ko'pdir. Shaharlarda mazkur ko'rsatkich 18,2 kv.m. ga, qishloq joylarda sa 18,5 kv.m. ga tengdir.

Ko'p xonadonli uy-joy fondi boshqarilishini takomillashtirishning usutvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadlarida Toshkent shahri misolida joriy boshqaruv tizimining tuzilmaviy tahlili amalga oshirildi, chunki Respublikadagi boshqa shaharlar bilan taqqoslaganda bu yerda ko'p xonadonli uy-joy fondi ob'yektlari va ularni boshqarish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning soni ancha kattadir.

Uy-joy fondini boshqarish tizimi deganda boshqaruvchi quyi tizim va quyi tizimga ta'sir ko'rsatuvchi o'zaro bog'langan elementlar (boshqaruvdagi maqsadlar, vazifalar, funksiyalar, metodlari, tamoyillar) jamlanmasi tushuniladi. Quyi tizimlarga nazorat qiluvchi (vazirliklar, idoralar, inspeksiya) organlar va boshqaruvchi tashkilotlar (BK, UJMSH, bevosita boshqaruv) kabilarni kiritish mumkin. Ular inshootlarning bevosita mulkdorlari, huquqiy shaxs (boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi tarzida) va uy-joy mulkdorlari shirkati ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondini boshqarishning ikki shakli – boshqaruvchi kompaniyalar (BK) va uy-joy mulkdorlari shirkati (UJMSH) eng ko'p tarqalgandir. Ko'p xonadonli uylarni boshqaruvchi kompaniyalar faoliyatining o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda ularning asosiy raqobatchilari bo'lib uy-joy mulkdorlari tashabbusi bilan tashkil etiladigan UJMSH lar hisoblanadi. Toshkent shahri bozorida boshqaruvchi kompaniyalar orasidagi raqobat boshqaruvchi kompaniyalarning resursli bazasi bilan belgilanadigan boshqariluvchi uylar soni bo'yicha jiddiy cheklolarga egaligi sababli ancha bo'shligi aniqlandi (2-jadval).

2-javdval

Toshkent shahridagi boshqaruv tashkilotlarining tarkibiy tahlili¹⁷

Ko'rsatkichlar	Yil								
	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Professional boshqaruv kompaniyalari (BK)	6	11	12	13	27	62	74	86	291
<i>O'sish surati, %</i>		183,3	109,1	108,3	207,7	229,6	119,4	116,2	338,4
Uy-joy mulkdorlari shirkati (UJMSH)		1331	1346	1406	2378	1498	2071	2161	2060
<i>O'sish surati, %</i>			101,1	104,5	169,1	63,0	138,3	104,3	95,3
Boshqaruv servis kompaniyalari (BSK)	5	12	14	25	27	44	64	86	281
<i>O'sish surati, %</i>		240,0	116,7	178,6	108,0	163,0	145,5	134,4	326,7

Boshqaruvchi kompaniyalar orasidagi mavjud yuqori raqobat shunga olib keladiki, bunga ko'ra mijozga sifati bo'yicha tobora o'sib boruvchi xizmatlarni ko'rsatish zarur bo'ladi. Shuning uchun uy-joy xizmatlari bozorining rivojlanish yo'nalishi ixtisoslashuv yo'nalishi bo'yicha bormoqda.

Professional boshqaruv kompaniyalari o'zlarining samarali ishi asosida nafaqat yuqori malakali xodimlarning mavjudligi, balki tegishli texnik jihozlar, asboblari, kompyuter, orgtexnika va hatto rasmiy avtomobillar mavjudligini ta'kidlashadilar. O'zbekiston Respublikasida 2022-yil noyabr holatiga ko'ra 39 691 ta ko'p

¹⁷ Muallif ishlanmasi

xonadonli uy mavjud bo‘lib, ular 1,3 milliondan ortiq xonadondan iborat. Boshqaruv kompaniyalari 36109 ta ko‘p xonadonli uylarga xizmat ko‘rsatmoqda, 1242 tasi uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan boshqariladi va 792 ta to‘g‘ridan-to‘g‘ri egalari tomonidan boshqarib kelinmoqda. Boshqa tashkilotlarning balansida 783 ta ko‘p xonadonli uylar mavjud, va 765 tasi esa boshqaruv usulini tanlash jarayonida ekanligi aniqlandi¹⁸.

Bugungi kunga kelib, ko‘p xonadonli uy-joy sektorida boshqaruv xizmatlarini ko‘rsatadigan raqobatbardosh bozor mavjud emas, buning sababi ushbu sohaning investitsion jozibadorligining mavjud emasligi, chunki professional boshqaruv tashkilotlari tomonidan to‘liq mexanizmni yaratish uchun birinchi navbatda sarmoya kiritish kerak, bu esa moddiy-texnik bazani rivojlantirishga imkon beradi. boshqaruv tashkilotlari buxgalteriya yozuvlarini to‘g‘ri yuritmaydilar, bu esa ishlarni rejalashtirish va smetalarni tuzishda aniq yondashuvlarga imkon bermaydi. Aksariyat boshqaruv tashkilotlari buxgalteriya hisobotlarini tug‘ri yuritmaydi, bu esa ishlarni rejalashtirish va xarajatlar smetasini tuzishda aniq yondashuvlarga imkon bermaydi. Ba’zi bir boshqaruv kompaniyalari eski UJMShlar yoki ular asosida tashkil topgan, tegishli ravishda barcha kreditorlik va debitorlik qarzlari yangi tashkil etilgan kompaniyaga o‘tkazilgan.

Aytish joizki, bugungi kunda O‘zbekistonda ko‘plab uy-joylar professional boshqaruv kompaniyalari tomonidan boshqarilmoqda. Aksariyat UJMShlar kredit qarzlari tufayli o‘z vazifalarini bajara olmaydi. Ko‘p qavatli uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida muallif tomonidan quyidagi chora-tadbirlar taklif etaladi:

1. Uy-joy fondini boshqarish sohasining axborot ochiqligi. Fuqarolar va davlat organlariga boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini baholash va zarur ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Uy-joy fondini boshqarish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligi fuqarolarning huquqiy savodxonligini shakllantiradi, chunki ular uy-joy mulkdorlarini huquqlari va manfaatlari to‘g‘risida xabardor qiladi, shuningdek, amalga oshirilayotgan tarif siyosatining shaffofligini ta’minlash imkonini beradi.

2. Ko‘p xonadonli uy-joy fondi va uy-joy mulkdorlari shirkatlari uchun boshqaruvchi tashkilotlar reytingini yaratish. Boshqaruv tashkilotlari va UJMShlar faoliyatini reyting baholash tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: qonuniylik, reytingda ixtiyoriy ishtirok etish, ma’lumotlarning to‘liqligi va yetarliligi, muntazamligi, baholashning xolisligi va mustaqilligi, barcha ishtirokchilar uchun reyting shartlarining ochiqligi va shaffofligi, reyting metodologiyasining soddaligi va qulayligi, baholash mezonlarining to‘g‘riligi va ilmiy asoslanganligi keltirilgan.

3. Respublikadagi muammoli bank kreditlariga ega bo‘lgan har bir uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyati to‘g‘risida tegishli xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banking xulosasi olingan taqdirda, uy-joy mulkdorlari umumiy yig‘ilishining

¹⁸ Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi - <https://kommunal.uz/uz/views/ko-p-qavatli-uylarga-majburiy-badalni-elektron-to-lash-mavjud-muammolar-va-ularning-yechimi>

qaroriga asosan ularni boshqarish uslubi o'zgartiriladi. Shu bilan birga, tugatilgan yoki boshqarish usuli o'zgartirilgan uy-joy mulkdorlari shirkatlarining boshqaruvida bo'lgan ko'p kvartirali uylarni boshqarish uchun, qoida tariqasida, reytingi yuqori bo'lgan boshqaruvchi tashkilotlar jalb qilinadi.

4. Ko'p xonadonli uy-joy fondini kapital ta'mirlash tizimining takomillashtirish va avariya holatdagi uy-joy fondidan ko'chirish.

Uy-joylarni o'z vaqtida ta'mirlash va modernizatsiya qilish. Ko'p xonadonli uy-joy fondini ta'mirlash va tiklash ishlari uchun davlatdan subsidiyalar va imtiyozlar ajratish. Aholini ko'chirish dasturlari haqida xabardor qilish, uy-joy fondini majburiy monitoringni amalga oshirish.

5. Uy-joy kommunal infratuzilma ob'yektlarini modernizatsiya qilish. Shaharni rivojlantirishni hisobga olgan holda muhandislik infratuzilmasi ob'yektlarini yaxshilash dasturlarini ishlab chiqish. Uy-joy kommunal xo'jaligining muhandislik ob'yektlarining holatini kuzatish. Kommunal infratuzilma ob'yektlariga (suv, gaz, issiqlik, elektr energiyasi) investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish. Xizmat ko'rsatish va resurslar bilan ta'minlash bozorini monopoliyadan chiqarish.

6. Uy-joy fondini boshqarish faoliyatini davlat organlari tomonidan nazorat qilish. Uy-joy fondini boshqaruv tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek, uy-joy mulkdorlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish. Boshqaruv tashkilotlari va mulkdorlar o'rtasidagi shartnomalarning qonun hujjatlariga muvofiqligi. Boshqaruv tashkilotlari faoliyati samaradorligini har oyda ko'rib chiqish va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini nazorat qilish lozim.

3-jadval

Professional boshqaruv kompaniyalarini SWOT - tahlili ¹⁹

Strength (Kuchli tomonlari)	Weaknesses (Zaif tomonlari)
<ul style="list-style-type: none"> - uy-joy mulkdorlariga kompaniyalar tomonidan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash va kafolat berish orqali ular bilan shaffof munosabatlar o'rnatish va manfaatlarini ximoya qilish; - qonun doirasida boshqaruv kompaniyasi xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatlarini bajarmagan uy egalari ta'sir qilish imkoniyati; - kompaniyani samaradorligini oshirishga yordam beradigan yanada professional menejerni jalb qilish; - moliyaviy resurslarni jalb qilish (kredit, subsidiya, grant va h.k.); 	<ul style="list-style-type: none"> - uy-joy mulkdorlarining ko'p xonadonli uyni saqlash xarajatlarini nazorat qila olmasligi boshqaruv kompaniyasi va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarda salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin; - boshqaruv kompaniyaning ko'p xonadonli uylarda resurslarni tejashni yaxshilashga yetarlicha etibor bermasligi; - boshqaruv kompaniyalarida tashkilotni rivojlantirish buyicha aniq strategiya yuqligi; - qup xonadonli uylarga xizmat kursatishni yangi shakllari yaxshi rivojlanmagan; - ishchilarning malakasini xisobga olmagan xolda mexnatga haq to'lash tizimi quyilgan.
Opportunities (Imkoniyatlar)	Threats (Tahdidlar)
<ul style="list-style-type: none"> - teng tijorat tuzilmalari pozitsiyasidan resurs yetkazib beruvchi kompaniyalar bilan munosabatlarni o'rnatish imkoniyati; - shahar, viloyat miqyosida uy-joy mulkdorlari manfaatlarini himoya qilish imkoniyati; - subsidiyalar va imtiyozlar olish imkoniyat; - ko'p xonadonli uylarni boshqarishni takomillashtirish uchun turli xil raqamli vositalarni yaratish imkoniyati. 	<ul style="list-style-type: none"> - uy-joy mulkdorlari tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaligi boshqaruv kompaniyasini moliyaviy axvolini murakkablashtiradi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yomonlashishiga olib keladi; - imtiyozlar va subsidiyalarning yoqligi kreditorlik va debitorlik qarzlarning ko'payishiga sabab bo'ladi; - uy-joy kommunal xizmatlar to'lovlarini oshishi; - demografik vaziyatni yomnlashuvi natijasida mijozlar sonining kamayishi olib keladi;

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan raqobat fonida boshqaruv kompaniyalarining SWOT-tahlilini o'tkazish o'zgaruvchan bozor muhiti sharoitida kompaniyalarning kuchli va zaif tomonlarini baxolashga imkon beradi (3-jadval).

Boshqaruv kompaniyalari birinchi navbatda ko'chmas mulkni samarali boshqarish, yuqori sifatli uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatish va foyda olish uchun yaratilgan. Biroq, UJMSH raqobati boshqariladigan uylar sonining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'plab kuchli tomonlarning mavjudligi boshqaruv kompaniyalariga o'zlarining ichki resurslaridan yanada samarali rivojlanish uchun foydalanishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, kelajakda moliyaviy daromadlarni ko'paytirish va kompaniyaning moliyaviy ahvolini yaxshilashni rejalashtirishga imkonini beradi. Shuningdek, kompaniya mijozlari bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash va ularning manfaatlari va kompaniyaning manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni topishga imkon yaratadi. Bu nafaqat mavjud mijozlarni saqlab qolishga, balki boshqaruv kompaniyasiga bo'lgan hurmatni oshirishga, obro'-e'tiborini mustahkamlashga va daromadlarning o'sishiga olib kelishi mumkin.

Boshqaruv kompaniyasidan farqli o'laroq, UJMSH notijorat tashkilot hisoblanadi. UJMSHning asosiy afzalliklari - bu bino egalari umumiy yig'ilishida muhim masalalarni hal qilish qobiliyati. Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining SWOT-tahlili o'tkazilgan, bu uy-joy fondini boshqarishning ushbu shaklini rivojlantirish yo'llarini aniqlashga imkon beradi (4-jadval).

4-jadval

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini SWOT - tahlili ²⁰

Strength (Kuchli tomonlari)	Weaknesses (Zaif tomonlari)
<ul style="list-style-type: none"> - ko'p xonadonli uyni holati to'g'risida batafsil ma'lumotlarni mavjudligi; - yuzaga keladigan tahdidlarni tezrok bartaraf etishga ko'prok manfaatdor; - xarajatlarni qisqartirish uchun ko'p xonadonli uyning resurslarini tejashni takomillashtirish; - uy-joy mulkdorlarining moliyaviy tushumlari faqat uy extiyojlariga sarflanadi va foyda sifatida xech kandy joyga taqsimlanishi mumkin emas; - muxim va tezkor qarorlar birgalikda majlislarda qabul qilinadi. 	<ul style="list-style-type: none"> - uy-joy mulkdorlari passivligi ko'p xonadonli uyning holati uchun javobgarlikni UJMSH raisiga yuklashga va yuzaga kelishi mumkin bo'ladigan nizolar holatiga olib keladi; - UJMSH raislari tomonidan ko'plab huquqbuzarliklar boshqaruvning ushbu shakliga nisbatan noqulay munosabatni keltirib chiqadi; - UJMSHni yaratish faqat katta ko'p xonadonli uy-joy bulganda afzalliroq; - soha mutaxassisi bulmay turib, har qanday shaxs UJMSH raisi bulishi mumkin
Opportunities (Imkoniyatlar)	Threats (Tahdidlar)
<ul style="list-style-type: none"> - umumiy maqsadlar uchun qushimcha daromad topish imkoniyati, masalan, bo'sh podval yoki cherdakni ijaraga berish, uyning fasadiga reklama joylashtirish kabi ishlar; - uy-joy mulkdorlari o'zlari resurs yetkazib beruvchi tashkilotlarni tanlash imkoniyatiga ega; - uy-joy mulkdorlarining xarajatlarini kamaytirish imkoniyati; - uy va unga tutash hududni obodonlashtirish. 	<ul style="list-style-type: none"> - uy-joy kommunal xizmatlari uchun badallarni to'plash bilan bog'liq muammolar extimoli; - UJMSH tarkibiga ko'pincha uy-joy masalalarida qobiliyatsiz uy-joy mulkdorlari kiradi; - uy-joy mulkdorlarning o'rtasidagi kelishmovchiliklar boshqaruvni samarasizlikga olib keladi; - UJMSH tomonidan bir martalik yullangan pudratchilar hizmati qimmatrok tushadi; - qonunchilikni nomukammalligi.

Ko'p xonadonli uylarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun imkoniyatlar va tavakalchilikni baholashga asoslangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish lozim. Buning uchun resurslarni yetkazib beruvchi kompaniyalar

²⁰ Muallif ishlanmasi

bilan o‘zaro aloqada bo‘lish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish, shuningdek, shahar darajasida uy egalarining manfaatlarini yanada faol himoya qilish kerak. Ushbu tavsiyalarning barchasi o‘zaro bog‘liq va ko‘p xonadonli uylarni boshqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal sohasi va uy-joy fondini boshqarish tizimi to‘g‘risida ma‘lumot olish imkoniyatini beruvchi raqamli platformalar tahlil qilingan, chunki ushbu sohaning axborot ochiqligi soha ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish tizimini yaratishga imkon beradi. Bugungi kunga kelib, ushbu sohadagi ishtirokchilar soni ortib bormoqda, shuni ta‘kidlash kerakki, ishtirokchilarning har biri ham axborot yetkazib beruvchisi, ham uning iste‘molchisi hisoblanadi, shuning uchun bu soha ma‘lumot to‘plash va tahlil qilish uchun eng qiyin hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida uy-joy kommunal xo‘jaligi va uy-joy fondiga hizmat ko‘rsatish sohasida jo‘da kam raqamli platformalar va axborot tizimlari mavjud. Viloyat va shahar miqyosida ochiq dasturli raqamli platformalar ichida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: "Mening Uyim" billing tizimi; "Age Tashkent" interaktiv xarita; Toshkent shahrining ochiq geoportali; Davlat yer kadastrining geografik axborot tizimi.

Ochiq raqamli platformalarni tahlili asosida, shuni aytishimiz mumkinki, ushbu tizimlarning umumiy muammoli xususiyati ularda saqlanadigan va aylanayotgan ma‘lumotlarning maxfiyligidir. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘zlarining ma‘lumotlar bazalarini yaratadilar. Bundan tashqari, foydalanilayotgan raqamli platformalar ko‘proq mahalliy xususiyatga ega, yuqorida ko‘rib turganimizdek, ushbu tizimlardagi hududlarni qamrab olish Toshkent shahri va unga yaqin aholi punktlari bilan chegaralangan. Bunday katta hajmdagi ma‘lumotlar uchun yagona axborot maydonining yo‘qligi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma‘lumotlarni topish va ulardan foydalanish vazifasini murakkablashtiradi. Tadqiqotda ushbu sohani axborotlashtirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar ham aniqlandi, jumladan: uy-joy kommunal xo‘jaligi bozori sub’yektlarini axborotlashtirishning turli darajasi, ma‘lumotlarni tizimli yig‘ishning yo‘qligi, ma‘lumot to‘plash uchun yagona standartlar va formatlarning yo‘qligi.


Uchinchi bobda **“Raqamlashtirish sharoitida uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish”** sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazish orqali Toshkent shahrida uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi, raqamli vositalarni ishlab chiqish masalalari urganildi va ko‘p xonadonli uy-joy fondini dinamikasi rivojlanishi prognozlash usullari asosida tadqiq etildi.

Toshkent shahridagi uy-joy fondini boshqarish tizimi va kommunal xizmatlarini ko‘rsatish, shuningdek, ushbu sohada raqamli vositalardan foydalanish va joriy etish to‘g‘risida jamoatchilik fikrini ochib beruvchi axborot bazasi va tahliliy materiallarni olish maqsadida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. Olingan ma‘lumotlar asosida respondentlarning anketa savollari javoblarini taqsimlash, guruhlash va tegishli ma‘lumotlar bazasini shakllantirish uchun jadvallar tuzildi.

Ijtimoiy so‘rovnoma Toshkent shahrida o‘tkazilgan, ushbu tanlovning asosi shundaki, ushbu shahar O‘zbekiston Respublikasining eng yirik shaharlaridan biridir, aholisi 2,9 million kishidan oshgan bo‘lib va bu yerda uy-joy fondini boshqaruvchi tashkilotlari boshqa hududlar qaraganda ko‘pligi ustunlik qiladi. sotsiologik so‘rovda turli yoshdagi 1,5 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi fuqarolarning kundalik hayoti bilan bevosita bog‘liq, chunki shahar aholisi har kuni o‘z kvartirasida, kirish joyida yoki unga tutash hududda ushbu sohaning turli jihatlarini bilan aloqada bo‘ladi. Agar har bir fuqaro ko‘chmas mulk solig‘i, kommunal xizmatlar, boshqaruv kompaniyasiga turli xil badallar to‘lashini hisobga olsak, demak, bu turar-joy binosining qulayligi va kommunal infratuzilma holatiga yuqori darajadagi talablarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot jarayonida ma‘lum bo‘ldiki, ko‘pchilik shahar aholisi o‘zlari yashayotgan uydagi kommunal infratuzilma holatini o‘ta salbiy baholadi, shuningdek, resurslar bilan ta‘minlovchi va boshqaruvchi tashkilotlarning samarasiz ishlayotganini qayd etdi (3-rasm).



3-rasm. Qoniqish darajasiga ko‘ra kommunal va muhandislik xizmatlari turlarini baholash ²¹

Respondentlarning aksariyati uylarni isitish mavsumiga tayyorlashdan norozi bo‘lgan, ehtimol bu so‘rov avgustdan oktyabrgacha bo‘lgan davrda uylarni isitish


²¹ Muallif ishlanmasi

tizimini ta'mirlash mavsumida o'tkazilganligi bilan bog'liqdir. Shuningdek, kirish yo'laklari joylarini tozalash (45%), uyning ichki qismini ta'mirlash (46,1%), sport va bolalar maydonchalarini obodonlashtirish va ta'mirlash (41,7%), fasad va tomlarni ta'mirlash (40,6%), yashil maydonlarni yaratish (35,6%) bo'yicha e'tiroz mavjudligi aniqlandi. Ovoz berganlarning 12,8 foizi boshqaruvchi tashkilotlarga to'liq e'tiroz yo'qligini ma'lum qildi.

Respondentlarning 80 foizdan ortig'i yagona raqamli makonda mamlakatning uy-joy fondi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni jamlaydigan universal raqamli platforma yaratishga qiziqish bildirishdi. Tadqiqot davomida olingan ko'rsatkichlar axborotni to'plash, saqlash va uzatishning mavjud an'anaviy tizimidan raqamli formatga bosqichma-bosqich o'tish zarurligini ko'rsatadi.

Uy-joy fondini boshqaruv idoralarini foydalanuvchi sifatida "Raqamli poytaxt" axborot-tahlil markaziga ulanishi ko'plab muammolarni hal qiladi, birinchi navbatda, bu yangiliklar davlat organlariga boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydali bo'ladi, shuningdek, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni favqulodda vaziyatlarga zudlik bilan javob berishga tayyorligini ta'minlaydi.

Uy-joy fondini boshqaruv tizimi, shuningdek, turli elementlar va quyi tizimlar samaradorligini oshirish maqsadida muallif tomonidan turli darajadagi davlat organlari, boshqaruv tashkilotlari va iste'molchilar o'rtasida byurokratik tartibsizliklarsiz axborot va hujjatlar almashinuvi modeli ishlab chiqilgan (4-rasm).




4-rasm. Uy-joy fondini boshqarish yagona raqamli platformasi modeli ²²

²² Muallif ishlanmasi

Model uy-joy kommunal xo‘jaligining barcha sub’yektlariga yagona raqamli makonda o‘zaro hamkorlik qilish imkonini beradi, bu esa barcha darajadagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tahliliy usullarning izchilligi va qo‘llanilishi hisobiga boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirish imkonini beradi. shuningdek, jamoatchilik nazorati va tartibga solish uchun sohaning shaffofligini ta’minlaydi.

Muallif tomonidan ushbu raqamli uy-joy fondini boshqaruv platformasida bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy axborot modullarini shakllantirilgan (5-rasm).



5-rasm. Yagona raqamli platformaning asosiy dastaklari²³

Ko‘rib turganingizdek, ushbu platforma ko‘plab axborot modullaridan iborat bo‘lib, ular o‘z navbatida egalari yoki tashkilot tomonidan birlashtirilishi yoki to‘ldirilishi mumkin. “Aqlli shahar” modeliga o‘tish ko‘plab innovatsion texnologik yechimlarni birlashtirishi kerak bo‘ladi, jumladan: BIM va GIT da binolarni axborot modellashtirish, binolarni zamonaviy qurilish texnologiyalari bilan jihozlash, aqlli hisoblagichlar va sensorlar, jarayonlarning o‘zini raqamlashtirish (elektron ma’lumotlar bazalari).

O‘zbekiston Respublikasi uy-joy fondining hozirgi holatini baholashni hisobga olgan holda, ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarishning amaldagi tizimini takomillashtirish zarur ko‘rinadi. Shu maqsadda muallif tomonidan uy-joy boshqaruvi sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar shakllantirildi (5-jadval).

²³ Muallif ishlanmasi

Raqamli texnologiyalarni uy-joy fondini boshqarish soxasiga bosqichma-bosqich joriy etish mexanizimi ²⁴


1-bosqich	
1	Uy-joy fondi ob'yektlarining texnik xolatini monitoringi - ko'p xonadonli uy-joy fondini monitoring qilish bo'yicha ishchi guruxni tashkil etish; - konstruktiv, muxandislik va kommunal muamollarni aniqlash; - aniqlangan muammolarni maxsus blanklarga to'ldirish.
2	Ko'p xonadonli uy-joy fondi ob'yektlari bo'yicha olingan ma'lumotlarni qayta ishlash - ko'p qavatli uylarning yagona ma'lumotlar bazasini yaratish va ulardan foydalanish (hujjatga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasi yoki SQL ma'lumotlar bazasi); - uy-joy fondi ob'yektlarini elektron pasportlarini yaratish;
3	Uy-joy fondini boshqarishning yagona raqamli platformasini yaratish uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqish - raqamli platformaning maqsadi, vazifalari va tuzilishini aniqlash; - moliyalashtirish manbalarini shakllantirish (xususiy investitsiyalar yoki davlat byudjeti); - tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni aniqlash.
2-bosqich	
1	Ko'p xonadonli uy-joylarni raqamlashtirish - aqlli hisoblagichlar va sensorlarni o'rnatish (IoT texnologiyalari); - uy-joy fondini boshqaruvchi tashkilotlarni tegishli raqamli uskunalar bilan jihozlash; - boshqaruvni avtomatlashtirish va uy-joy fondining raqamli yagona muhitni yaratish; - turar-joy binolarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni optimallashtirilgan rejalashtirish; - binolarga texnik xizmat ko'rsatish va aloqalarni markazlashtirilgan boshqarish uchun qurilmalar/tizimlarni ERP yoki CRM ga ulash.
2	Yagona raqamli uy-joy boshqaruvi platformasining ishlashini ta'minlash - yagona hujjatga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasini platforma bilan integratsiya qilish; - mavjud raqamli platformalarini integratsiya qilish (Mening Uyim, O'zbekiston Respublikasi Geoportali, Toshkent shahar xaritasi va boshqalar). - tegishli bo'limlarda raqamli platforma bilan ishlash bo'yicha bo'lim tashkil etish; - raqamli platforma faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash.
3-bosqich	
1	Ko'p xonadonli uy-joy fondi ob'yektlarining BIM-modellarini yaratish
2	Platformaga interaktiv ma'lumotlarni kiritish va ularni xaritada fazoviy ma'lumotlar bilan bog'lash
3	Platforma ma'lumotlarini yangilashni nazorat qilish va monitoring qilish

Uy-joy fondini boshqarish sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin, chunki raqamli vositalar yordamida ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash imkoniyatlaridan foydalanish ma'lumotlarni tahlil qilish va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bularning barchasi boshqaruv kompaniyalari xarajatlarini 15-20% ga kamaytirish imkonini beradi, chunki ko'plab mutaxassislarni shtatda ushlab turishning keraksizligiga olib keladi. Uy-joy fondini boshqarish tizimini raqamlashtirish barcha elementlarning yagona raqamli makonda o'zaro xamkorligini, boshqaruv kompaniyalari va uy-joy mulkdorlari shirkatlariga uylarni samarali boshqarish, davlat organlari boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish, fuqarolarga esa barcha uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi haqida zarur va dolzarb ma'lumotlarni olishga imkonin yaratadi.

²⁴ Muallif ishlanmasi


Uy-joy fondini boshqarish sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish butun uy-joy-kommunal xo‘jaligi sohasini o‘zgartirishga olib keladi va “aqli shahar” modeliga o‘tish imkonini beradi, bu esa kelajakda mamlakatimizning barcha iqtisodiyot tarmoqlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilib, davlatimiz rahbari tomonidan turar-joy binolarini qurish va foydalanishga topshirish hajmini oshirish vazifasi qo‘yildi. Ko‘p xonadonli uy-joy fondini rivojlantirish tendensiyasini o‘rganish maqsadida muallif tomonidan turar-joy binolarini foydalanishga topshirish va uy-joy fondi hajmi bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish uchun statistik tahlil o‘tkazildi. Uy-joylarni foydalanishga topshirish bo‘yicha prognoz ma’lumotlarni yaratish uchun modellar shakllantirildi (6-rasm).



6-rasm. Uy-joylarni foydalanishga topshirish trend chizig‘i ²⁵

Uy-joylarni foydalanishga topshirish kursatkichlari uchun eng to‘g‘ri munosabat tenglamasi ko‘rib chiqilayotgan vaqt oralig‘ida maqbul yaqinlashishni ta’minlovchi chiziqli funksiya ekanligi aniqlandi va quyidagi tenglamaga muvofiq $y=426,77x+8761,7$ prognoz kursatkichlarni qurishga imkon beradi, bunda $R^2=0,8423$.



7-rasm. Umumiy uy-joy fondini trend chizig‘i ²⁶

Umumiy uy-joy fondi prognozini yaratish uchun mos funksiya $y=0,3617x^3-4,8543x^2+28,86x+409,52$ musbat kvadratik funksiya ega bo‘lgan polinomial funksiya bo‘lib, bu funksiyaning haqiqiy qiymatlarga ishonchliligi 96% dan ko‘prog‘ga to‘g‘ri keladi yoki yaqinlashish koeffitsiyenti $R^2=0,9653$ (7-rasm).

Olingan natijalar uy-joy fondining o‘shish dinamikasi va uy-joylarni foydalanishga topshirishning prognoz ko‘rsatkichlarini berish imkonini beradi (6-jadval).

²⁵ Muallif ishlanmasi

²⁶ Muallif ishlanmasi

2028-yilgacha uy-joy fondi va uy-joylarni foydalanishga topshirish prognoz ko'rsatkichlari²⁷

Yil	Uy joylarni foydalanishga topshirish, ming. kv.m.	O'sish, %	Umumiy uy-joy fondi, mln. kv.m.	O'sish,, %
2022	14309,7	104,9	681,84	107,14
2023	14736,5	103,0	758,98	111,31
2024	15163,2	102,9	854,62	112,60
2025	15590,0	102,8	970,94	113,61
2026	16016,8	102,7	1110,10	114,33
2027	16443,5	102,7	1274,28	114,79
2028	16870,3	102,6	1465,64	115,02

Uy-joylarni foydalanishga topshirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich o'sish haqida gapiradi, shuning uchun 2028 yilda bu ko'rsatkich 16 870,3 ming kvadrat metrni tashkil etadi va 2021 yilga nisbatan o'sish sur'ati 123,6 foizni tashkil etadi va shu davrga kelib uy-joy fondi hajmi 1465,64 mln.kv.m.ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida turar-joy maydonlarini foydalanishga topshirish va doimiy aholi soni ko'rsatkichlari bo'yicha modeli yaqin kelajakda qurilgan trend chizig'ini hisobga olgan holda, yangi uy-joylarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmining ozgina o'sish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi. doimiy aholi soni prognozlari buyicha demografik o'sish ko'rsatib o'tilgan, bu esa uy-joy qurilishi va aholi sonining o'sishining nomutanosib o'zgarishidan xavotir uyg'otadi.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, kelgusi yillarda uy-joy fondini o'sishi (yangi uylar va infratuzilmani qurilishi) tendenssiyasi kuzatilmoqda, degan xulosaga kelish mumkin va bu, o'z navbatida, ushbu ob'yektlarni muammosiz ishlashi va uzluksiz xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun malakali boshqarish zarurligini aniqlangan. Uy-joy sharoitining sifatini yaxshilash salomatlik va umr ko'rish davomiyligi, psixologik holat, ta'lim darajasi va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demografik jihatlar va uy-joy qurilishi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda bir qator hal etilmagan muammolar, jumladan, mavjud uy-joy fondi hajmi va aholining doimiy o'sishi, fuqarolarning sifati va turmush sharoitlari o'rtasidagi nomuvofiqlik mavjud. Bu esa ushbu ikki ko'rsatkichning o'zaro funksonal rivojlanishini taqozo etadi.

Mamlakatimiz aholisi yildan-yilga ko'payib bormoqda va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish ko'lami ortib bormoqda. Bugun biz internet, gadjetlar va turli raqamli resurslar qanchalik mustahkam kundalik hayotning bir qismiga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Aholining sifatli xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji ortadi, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi ham bundan mustasno emas. Bu holat uy-joy fondini boshqarish sohasini raqamlashtirishni taqozo etadi, chunki qurilish hajmi barqaror o'sib boradi va samarali boshqaruv zarurati doimo dolzarb bo'lib qoladi.

²⁷ Muallif ishlanmasi

XULOSA

1. Katta shaharlarning uy-joy fondini o'ziga xosligi boshqaruv ob'yekti pozitsiyasidan o'rganildi. Uy-joy fondini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlariga ijtimoiy masalalar, mulkchilikning ko'p shakllari va uy-joyning har- xilligi kiradi. Uy-joy fondining iste'mol xususiyatlari, shu jumladan turar-joyning texnik xususiyatlari, resurs zichligi va uyning xususiyatlari aniqlanadi.

2. Uy-joy fondini boshqarish tizimiga bevosita ta'sir etuvchi omillar aniqlangan bo'lib, ular uy-joy fondini boshqarish tizimini rivojlantirish omillarini tasniflash va shakllantirish imkonini berdi.

3. Uy-joy fondini boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashning uslubiy yondashuvlarini o'rganish ushbu tarmoqni barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar kompleksini shakllantirish imkonini berdi.

4. Uy-joy fondini boshqarish sohasidagi ilg'or horijiy tajriba tahlil qilindi, bu esa ushbu yo'nalish bo'yicha strategik yechimlarni ishlab chiqish tendensiyalarini aniqlash va tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi.

5. O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondining tuzilishi va dinamikasi o'rganildi, shuningdek, ko'p xonadonli uy-joy fondini rivojlantirish vektorlarini aniqlash imkonini beruvchi amaldagi boshqaruv tizimini baholash amalga oshirildi.

6. Fuqarolar va ekspertlarning sotsiologik so'rovnoma asosida olingan uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Tadqiqot davomida olingan ko'rsatkichlar ma'lumotni to'plash, saqlash va taqdim etishni mavjud an'anaviy tizimidan raqamli formatga bosqichma-bosqich o'tish zarurligini ko'rsatadi.

7. Uy-joy fondini boshqarish sohasida raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmi taklif etildi, u uch bosqichda ishlarni ko'zda tutadi: birinchi (monitoring - qayta ishlash - texnik topshiriqlarni ishlab chiqish), ikkinchisi (raqamlashtirish - ekspluatatsiya), uchinchi (nazorat - monitoring).

8. Mamlakatda uy-joylarni foydalanishga topshirish hajmining o'sishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Prognozlarga ko'ra, 2028-yilga borib foydalanishga topshirilgan uy-joylar hajmi 16 870,3 ming kv.m.ga yetkaziladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi uy-joy fondining bosqichma-bosqich o'sib borayotganini ta'kidlash lozim, bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, 2028-yilda uy-joy fondi hajmi 1465,64 million kv.m.ni tashkil qilishi kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2020.I.16.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДРАСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КАХРАМОНОВ ХУРШИДЖОН ШУХРАТ УГЛИ

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ
ФОНДОМ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ**

08.00.13 – Менеджмент

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за №B2022.1.PhD/Iqt2046

Диссертация выполнена в Ташкентском архитектурно-строительном университете.
Автореферат диссертации на трех языках (русский, узбекский, английский) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Нуримбетов Равшан Ибрагимович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Рахимова Дилфуза Нигматовна**
доктор экономических наук, профессор

Хаикелдиева Гузаль Шеровна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский государственный транспортный университет**

Защита диссертации состоится «4» 07 2023 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете по адресу: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 49. Тел: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под номером №1309). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 49. Тел: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «20» 06 2023 года
(протокол реестра рассылки 1 06 2023 года)



Г.К. Абдурахманова
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

О.Д. Джурабаев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по экономическим наукам, доцент

Ш.Д. Эргашходжаева
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Активизация глобальных процессов цифровизации в мировой экономике обусловлена постепенным внедрением цифровых технологий во все сферы городской жизни. Данные процессы оцениваются многочисленными международными рейтингами. Согласно исследованиям центра мировой конкурентоспособности IMD, рейтинг самых «умных» городов возглавляют такие развитые мировые центры как Сингапур, Цюрих, Осло, Лондон, Лозанна, Хельсинки, Нью-Йорк и др.¹ Чтобы оказаться на высоких строчках рейтинга, в городе должны быть реализованы множество инновационных технологических решений, среди которых и эффективное управление объектами социальной инфраструктуры. Основной идеей концепции "умных" городов является создание единого информационного пространства, содержащего актуальную информацию о функционировании управляемых объектов, развитие которых определяется различными показателями, охватывающими все аспекты жизни человека, в том числе: жилищные условия, энергетика, телекоммуникации, водоснабжение, улучшение и т.д.

Цифровизация мировой экономики, ускорение технических и технологических процессов требует проведения научных исследований, направленных на повышение эффективности управления жилищным фондом. Повышение эффективности управления и обслуживания существующих зданий и сооружений, удовлетворение потребности в грамотном и эффективном управлении жилищным фондом независимо от форм собственности, совершенствование и модернизация системы управления жилищным фондом, информационно-аналитическую поддержку управленческой деятельности, включающую средства поиска, сбора, обработки, хранения и предоставления данных о каждом объекте жилищного фонда является одним из важных направлений научных исследований.

В Узбекистане создание элементов инфраструктуры «цифровой экономики» является одним из главных приоритетов государственной политики. В целях ускоренной цифровизации страны утверждена программа «Цифровой Узбекистан 2030»² и постановление главы государства «О мерах по широкому внедрению цифровых технологий в городе Ташкенте»³ которые определяют устойчивое развитие экономики и социальной сферы и оказывают положительное влияние на жилищную политику государства. Вместе с тем параллельно развиваются смежные сферы деятельности как строительство, жилищно-коммунальное хозяйство, инвестиционная деятельность и др. Все вышесказанное обуславливает актуальность темы исследования и требует

¹Smart City Index опубликовал рейтинг самых умных городов мира – <https://34travel.me/post/smart-city-index-umnye-goroda>

² Указ Президента Республики Узбекистан №6079 от 05.10.2020 “Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан-2030 и мерах её эффективной реализации” – <https://lex.uz/ru/docs/5031048>

³ Постановление Президента Республики Узбекистан, от 17.03.2020 г. № ПП-4642 «О мерах по широкому внедрению цифровых технологий в городе Ташкенте» – <https://lex.uz/ru/docs/4767518>

разработки основных направлений инновационного развития системы управления жилищным фондом в условиях цифровизации.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан: Закон Республики Узбекистан ЗРУ-581 от 07.11.2019 г. «Об управлении многоквартирными домами», Постановления Президента Республики Узбекистан, ПП-2922 от 24.04.2017 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы содержания и эксплуатации многоквартирного жилищного фонда на период 2017 - 2021 годы», ПП-5152 от 19 июня 2021 года «О дальнейшем совершенствовании системы управления многоквартирными домами», ПП-4642 от 17.03.2020 г. «О мерах по широкому внедрению цифровых технологий в городе Ташкенте», Указ Президента Республики Узбекистан №6079 от 05.10.2020 «Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан-2030 и мерах её эффективной реализации”, а также других нормативно-правовых документах, касающихся совершенствования и модернизации системы управления жилищным фондом.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий в Республике Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики»

Степень изученности проблемы. Научные исследования в области управления жилищным фондом проводились многими зарубежными учеными, среди которых заслуживают внимания труды Д. Макдоннелл, А.Страуб, Р. Лиас, А.Мучиньский, К.Сусзиньска, Н. Эдадан, М. Троянек, А. Останьска, С. Дейлманн, А.Кернс, Х. Приемус, А. Беннаджи и др⁴. В работах данных ученых раскрывается понятийный аппарат, теоретические и методологические подходы управления жилищным фондом.

Из числа исследователей стран СНГ теоретико-методологическим вопросам управления жилищным фондом посвящены труды, таких ученых

